

MAVZUNING O'RGANILISHIDA TURLI XIL METODLARNING O'RNI VA AHAMIYATI

Abdullayeva Adiba Shuxratovna

*Sharof Rashidov nomidagi Samarqand
davlat universiteti talabasi*

Annotatsiya: Ushbu maqolada hozirgi kunda darslarda qo'llaniluvchi uslublarning mavzuning o'rganilishidagi o'rni va ularni qo'llash yo'llari haqida ma'lumot berilgan.

Kalit so'zlar: kognitiv metod, interfaol, interaktiv, ramz,

Maktab ma'rifat maskani sanaladi, chunki u o'quvchilarni shaxs sifatida shakllantirishga asos vazifasini o'taydi. Tarbiyalanuvchilar maktab darsliklaridan ma'naviy ozuqa, tarbiya va estetik zavq oladilar hamda mazkur tushunchalarini kelajak hayotida qo'llashga intiladilar. Ushbu jarayonda o'quvchilarga ustozlari ko'mak beradilar. O'qituvchining o'zi o'tayotgan fanni mukammal bilishi, bilganlarini o'quvchilarga yetkaza olish darajasigina emas, hatto uning o'zini tutishi, nutqi ham oziga xos ahamiyat kasb etadi. O'qituvchi tomonidan qo'llanadigan pauzaning davomiyligi singari "mayda narsa" o'quv dialogining, sinfdagi o'zaro hamkorlikning xarakteriga sezilarli tasir o'tkazadi.¹ Shunday ekan, o'quvchilarning ma'naviy kamolotida o'qituvchilarning o'rni beqiyos. Bu yo'lda o'qituvchiga esa savol va topshiriqlar yordamga keladi. O'qituvchi dars mashg'ulotidan oldin unga, albatta, tayyorgarlik ko'rishi, shu vaqt davomida savollarning xususiyatini va aniq maqsadini aniqlab olishi kerak. Savollar va topshiriqlar o'tilayotgan mavzuga o'quvchini qiziqitira olishi hamda asarning mazmunini tushunish va idrok etishga undashi, xulosa chiqarishga harakat qildirishi, muammoli vaziyatlarni solishtirish, taqqoslash, hal etishga yo'naltirishi kerak. O'quvchi bu jarayonda faqatgina kitobdagi kabi emas, balki hayotiy bilimlari, shaxsiy tajribalariga tayanib fikrlasa, bu uning aqliy faoliyatini kuchaytiradi va tafakkuriga ta'sir qila oladi. Savol-topshiriqlar o'quvchini mutolaga qiziqitirishi, fikrlashga undashi, kontekstni tushunishga tayyorlashi, tahlilga yo'naltirishi, sintez, baho berish, mavzuni boshqa fanlar, eng muhimi, hayotga bog'lay olishi nuqtayi nazaridan ham samaralidir. Shuningdek, badiiy asarning tasvir obyekti, tuyg'ular tarbiyasini to'la yoritishga, obrazlilikni tasavvur ettirishga, kitob bilan hayot o'rtasidagi aloqadorlik xususida mushohada yuritishga yo'naltiradi. Professor N.Egamberdiyeva matn bilan ishlash jarayonini uch guruhga, o'qishgacha, o'qishdan

¹ Yoldoshev Q. Adabiy saboqlar. Umumtalim maktablarining 8-sinf Adabiyot darsligi uchun metodik qollanma. T.:Sharq, 2004. B.32.

oldingi, o'qishdan keyin, bo'lib o'rganish o'quvchilarda yaxshi samara berishini alohida ta'kidlaydi. Bunda o'qishdan oldingi savol va topshiriqlar berilgan mavzuga o'quvchini qiziqtirish, matnni yaxshiroq tushunishga o'quvchini oldindan tayyorlashga xizmat qiladi. O'qish davomidagi savol va topshiriqlar berilgan asarga o'quvchini qiziqtirish, matn mavzusi bo'yicha mushohada qilish kabi vazifalarni bajaradi. O'qishdan keyingi savol-topshiriqlar barcha bilimlarni umumlashtirish, asarga o'z munosabatini bildira olish va amaliyotda qo'llash ko'nikmalarini beradi. Yangi darsliklarning yutug'i shundaki, berilgan mavzu bo'yicha shu yo'nalishda savollar tuzilgan. Quyida 6-sinf adabiyot darsligida berilgan A.Qahhorning "O'g'ri" hikoyasini mustaqil o'rganib, tahlil qilishga oid misollar keltirib o'tamiz:

Asarni o'qishdan oldingi savol-topshiriqlar

1. Birorbir qadrli narsangizni yo'qotib qo'yganingizda qanday holga tushgansiz?
2. O'ylab ko'ring-chi, nima uchun muallif hikoyani "O'g'ri" deb nomlagan?
3. O'g'ri kim bo'lishi mumkin?
4. Asarni o'qib bo'lgach, yana shu savolga qayting. Avvalgi va keyingi javoblaringizni qiyoslang

Asarni o'qish davomidagi savol va topshiriqlar

1. Dehqonning uyi kuysa kuysin, ho'kizi yo'qolmasin. ... Ho'kiz topish uchun necha zamonlar qozonni suvga tashlab qo'yish kerak bo'ladi". O'ylab ko'ring-chi, nega ho'kiz dehqon uchun juda muhim hayvon bo'lgan?
2. Qobil boboning holatiga e'tibor bering. Nega u "titraydi, tizzalari bukilib ketadi, ko'zlari javdiraydi"
3. Qobil bobo ellikboshiga nima uchun pul berdi? Ellikboshi Qobil boboga yordam berdimi?
4. Amin "Yo'qolmasdan ilgari bormidi?", "Yaxshi ho'kiz birov yetaklasa, keta beradimi?" kabi savollarni nima maqsadda berdi deb o'ylaysiz? Ho'kizning qanday yo'qolganini surishtirmoqchimi yoki Qobil boboning ustidan kulyaptimi?
5. Sizningcha, amin qanday odam? Nega u Qobil boboga "Yig'lama" yoki "Yig'lamang" emas, "Yig'lanmasin!" deyapti? Uning Qobil boboga biror yordami tegadi deb o'ylaysizmi?
6. Ellikboshining Qobil bobo bilan birinchi va ikkinchi suhbatida qanday farqlarni sezdingiz? Ellikboshining asl maqsadi nima edi?
7. Egamberdi paxtafurushning Qobil boboga qo'ygan "kichkinagina" sharti nima bo'lishi mumkin? Qobil bobo bu shartni bajara oladi deb o'ylaysizmi?


Mutoladan keyingi savol va topshiriqlar

1. "O'g'ri" hikoyasida o'sha davrga xos qanday muammolar tasvirlangan?
2. Qobil boboning sarson-sargardon bo'lishiga ko'proq kim aybdor deb o'ylaysiz? Bunday holatga tushmaslik uchun nima qilish kerak?

3. Asar matnidan oldin keladigan va uning asosiy g'oyasini ochib berish uchun ishlatiladigan maqol yoki hikmatli so'z epigraf deyiladi. Nega "O'g'ri" hikoyasiga "Otning o'limi – itning bayrami" maqoli epigraf qilib tanlangan.

4. Bu hikoyada "ot" va "it" kim? Hikoyaga tayangan holda maqolning mazmunini tushuntirib bering.

Darslikdagi nazariy materiallarning yolg'iz o'zi inson kamolotini to'la rivojlantirish va mavzuni tushunishga, uni amaliyotda qo'llash ko'nikmalarini rivojlantirish uchun yetarli bo'lmaydi, ayniqsa, adabiyot darslarida. Bu yo'lda to'g'ri tuzilgan savol va topshiriqlarning o'rnini juda muhim. Savol va topshiriqlar turli metodlar tarkibida qo'llaniladi. O'qitish metodlari o'qituvchi va o'quvchi faoliyati, o'qitish jarayonining qay yo'sinda ketishi va shu jarayonda o'qituvchi va o'quvchining qanday amallar bajarishi lozimligini aniqlab beradi. Ta'lim metodlari o'z o'rnida bir necha guruhlariga bo'linadi:



Istiqlol davrida bilimni o'zlashtirish davomida o'quvchilarda yangi mavzuni mustaqil o'qib-o'rganish, nazariyani amaliyotda qo'llash ko'nikmalarini shakllantirishga alohida urg'u berilmoqda. Bunda kognitiv va kreativ metodlardan hamkorlikda unumli foydalanish tavsiya qilinmoqda. Zamonaviy tilda bu metodlarni interfaol yoki interaktiv metodlar deb ham atashadi. Interfaol metodlar deganda – ta'lim oluvchilarni faollashtiruvchi va mustaqil fikrlashga undovchi, ta'lim jarayonining markazida ta'lim oluvchi bo'lgan metodlar tushuniladi. Bu metodlar qo'llanilganda ta'lim beruvchi ta'lim oluvchini faol ishtirok etishga chorlaydi. Ta'lim oluvchi esa butun jarayon davomida faol ishtirok etadi.

Kognitiv metodlar. Kognitiv so'zi lotincha: cognitio "bilim" so'zidan olingan va ushbu metodlar ta'lim oluvchilarda butun olam haqidagi mavjud bilim va tushunchalarni yanada orttirish, shuningdek, masalani tarkibiy qismlarga ajratib tadqiq qilish ko'nikma va malakalarini shakllantirishga qaratiladi. Kognitiv o'qitish asosida shaxsni biologik, psixologik va ijtimoiy tashkillashtirishning dinamik tizimi yotadi. Uning "strategiya va aqliy qobiliyatlarning butun majmuini rivojlantirib, o'qitish

jarayoni va individning yangi sharoitlarga o'rganish jarayoniga imkoniyat yaratishi"²ni qayd etmoq o'rinlidir. Bu kabi metodlar o'rganuvchilar tafakkuri, ruhiyati, o'zlashtirish jarayonlari rivojiga ijobiy ta'sir ko'rsatadi. O'qituvchi va o'quvchi o'rtasida samimiy va do'stona muhit yarata olishiga sharoit yaratadi.

“Asarda tasvirlangan voqelik bilan hayot voqeligini farqlash jonli muloqot natijasidir. Kitobxon ularni taqqoslash uchun bosh qotiradi – o'ylashga majbur bo'ladi. Shu jarayonda asar voqeligini xayolida qayta jonlantiradi, qahramonlarning o'rniga o'zini qo'yib ko'radi, muayyan xulosalar chiqaradi. Ko'rinadiki, u ham o'ziga xos ijod qiladi”.³

Umumiy o'rta ta'lim maktabining 5-sinfida Xudoyberdi To'xtaboyevning "Sehrli qalpoqcha" asaridagi "Shaytonning yelkasiga igna sanchdim" qismini empatiya metodi asosida tahlil qilamiz. Bu jarayonda o'rganuvchilarga quyidagicha murojaat qilish mumkin:

"Tasavvur qiling, siz ushbu voqea-hodisa sodir bo'lgan paytga va joyga tushib qoldingiz. O'zingizni Hoshimjonning o'rnida tasavvur qiling. Direktor xonasida do'stingiz bilan turibsiz, atrofingizda tasvidagidek o'qituvchilar. Siz ham barcha aybni o'z zimmangizga olarmidingiz? Siz uydan chiqib ketgan bo'larmidingiz yoki boshqacha yo'l tutgan ma'qulmi? O'sha paytdagi holatingizni so'zlar orqali tasvirlashga harakat qiling".

Ma'lum bir qahramonning o'rniga o'zini qo'ya olish obrazning xususiyatlarini yanada aniq o'rganish, uning tuyg'u va kechinmalarini anglash jarayonini integratsiya qiladi. “Empatiya metodini qo'llashning ahamiyati o'quvchida personajlar qiyofasiga kirish orqali obyekt muammolarini tushunish, kechinmalarini his qilish va jarayonni belgili, harakatli yoki rasmi tarzda tasvirlash ko'nikma va malakalari shakllanishi; mavjud imkoniyatlar yuzaga chiqishi; obyekt ichiga kirish holatida o'quvchi o'zini kuzatish va baholash imkoniga ega bo'lishida namoyon bo'ladi”.⁴

Ilmiy faraz(gipoteza) metodida olamdagi ma'lum narsa, voqea-hodisalar mohiyatini ochish ustuvor sanaladi. Materiallar empirik jihatdan tahlil qilingandan so'ng o'quvchi uchun yangi g'oyalar, savollar paydo bo'lishiga zamin hozirlaydi. “Adabiyot darslarida ilmiy faraz (gipoteza) metodini qo'llashning afzalliklari shundaki, bunda o'rganilayotgan mavzu doirasida savoltopshiriqlar yoki muammoli vaziyatlarning bir qator variantlari yaratilishi ko'zda tutilib, g'oyalarning asoslari

² <https://www.mirznani.com/a/179562/kognitivnye-metody-obucheniya>

³ С.Матчинов, Умумтаълим тизимида адабиётдан мустақил ишларни ташкил этиш. Пед. фан. док. ...дисс. - Тошкент, 1998. – 84 б.

⁴ S.Kambarova, O'zbek adabiyotini o'qitish metodikasi [Matn] : uslubiy qo'llanma / – Toshkent: Mahalla va Oila, 2022. - 128 b.

aniqlanadi, muhokama qilinib, mantiqan mukammal hisoblangan fikr-mulohazalar tanlab olinadi”.⁵

6-sinfda Abdulla Qahhorning "O'g'ri" hikoyasini o'rganishda "Agar Qobil bobo barcha amaldorlarga "pora" bermaganda edi...", "Agar zamon bunchalik og'ir bo'lmaganda edi...", O'tkir Hoshimovning "Dunyoning ishlari" qissasidagi "Eng og'ir gunoh" qismida berilgan voqea asosida "Nega ona yolg'on gapirdi? U yolg'on gapirib to'g'ri qildimi? Agar haqiqatni aytganida voqea qanday yakun topgan bo'lardi?", yoki G'afur G'ulomning "Shum bola" qissasi asosida "Agar shum bola uyidan qochib ketmaganda edi...", "Agar u Sari oy bo'lisni aldamay, rostini aytib, chaqirganda edi..." kabi savollar o'quvchining matiq va idrokini ishga soladi va javob variantlari yuzaga keltiradi.

"Ramziy ko'rish" metodi. "Ramz – bu o'zida mohiyatni mazmun etgan voqelikning chuqur obrazidir va u shu voqelikni bilish va kuzatish vositasida namoyon bo'lishi mumkin".⁶ Ushbu metodda berilgan narsa va u ifodalayotgan Ramziy ma'no o'rtasidagi bog'liqlikni aniqlashga ko'maklashadi. Barcha nazariy ma'lumotlar o'zining ilmiy daliliga ega. "Kognitiv nazariyada "sxema" tushunchasi qabul qilingan bo'lib, bu tushuncha inson xotirasida mavjud bo'lgan ma'lumotlar va xotiralar yig'indisini bildiradi. Inson miyasi yangi ma'lumotni qabul qilayotganda o'zida mavjud sxema bilan solishtiradi va bu sxemaga mos tushadigan ma'lumot yaxshiroq va osonroq o'zlashtiriladi" O'quvchilar matnda berilgan ramzlarni matnga bog'liq holda tahlil qilishi kerak bo'ladi. Misol uchun, 5-sinf adabiyot darsligida bunga oid quyidagicha savollar tuzilgan: Abdulla Oripov she'rlari asosida: Uchala she'rdagi obrazlar hayotda kimlar yoki nimalarning ramzi bo'lishi mumkin?

Erkin Vohidov she'ri asosida: Sizningcha, she'rdagi qaysi obraz kamtarlik ramzi bo'la oladi? Nima uchun?

Alisher Navoiyning "She'r va durroj" hikoyasida she'r va durroj kimlarning ramziligini, bunday ramzlarni hayotdan misollar topish orqali aniqlash ancha samarali yechim beradi.

Kreativ metodlar: tadqiqot xarakteridagi kreativ metodlar tarbiyalanuvchilarda maqsadga qaratilgan ijodiy tafakkurni qaror toptirib, shaxsiy ta'lim mahsuli yaratish bilan natijalanadi.

"O'ylab topish" metodida o'quvchi asarda berilgan qahramonlarning xarakterli xususiyatlarini boshqasiga ko'chiradi va bu orqali yangi bir obraz yuzaga keladi. "Mazkur jarayonda o'quvchilar aynan qaysidir qahramonni tamomila boshqa qiyofada ko'rishi va xayolan o'zlari inkishof etgan evrilishlarni yuzaga chiqarish imkoniga ega

⁵ S.Kambarova, O'zbek adabiyotini o'qitish metodikasi [Matn] : uslubiy qo'llanma / – Toshkent: Mahalla va Oila, 2022. - 128 b.

⁶ Турсунов Ж. Ўқувчиларда креатив қобилиятларни шакллантиришда эвристик таълим методларидан фойдаланиш // Maktab va hayot. – Тошкент, 2013. – № 3. – Б. 27.

bo'ladilar. Jumladan, taniqli adib Muhammad Alining "Ulug' saltanat" tetralogiyasi personajlari Amir Kayxusrav, Mahmudshoh Buxoriy, Abu Is'hoq Yasovuriy, Odilshoh jaloyir kabi xudbin amirlar Amir Temurning kechirimlilik, bag'rikenglik, olijanoblik bobidagi xatti-harakatlari ta'sirida o'zlarini jaholatdan asray bilgan kishilar obrazlari sifatida gavdalanishi nazarda tutiladi".⁷

Metodist olimi Q.Husanboyevaning fikrlariga kora, muammoli vazifalar oquvchilarda axloqiy fazilatlarni shakllantirishda muhim rol oynaydi. Shuningdek, berilayotgan muammoli savollar o'quvchilar olgan bilimlarga ham mos kelishi lozim. Umumiy qilib aytganda, bu kabi metodlar orqali berilgan savol va topshiriqlar orqali o'quvchilarga nazariy bilimlarni amaliy shaklga keltirish, yangi o'rganilgan bilimlar asnosida o'zi ham yangilik kashf qilishga undaydi.

Foydalanilgan adabiyotlar:

1. Yoldoshev Q. Adabiy saboqlar. Umumtalim maktablarining 8-sinf Adabiyot darsligi uchun metodik qollanma. T.:Sharq, 2004.
2. S.Kambarova, O'zbek adabiyotini o'qitish metodikasi [Matn] : uslubiy qo'llanma / – Toshkent: Mahalla va Oila, 2022.
3. Турсунов Ж. Ўқувчиларда креатив қобилиятларни шакллантиришда эвристик таълим методларидан фойдаланиш // Maktab va hayot. – Toshkent, 2013. – № 3.
4. С.Матчонов, Умумтаълим тизимида адабиётдан мустақил ишларни ташкил этиш. Пед. фан. док. ...дисс. - Toshkent, 1998.

⁷ S.Kambarova, O'zbek adabiyotini o'qitish metodikasi [Matn] : uslubiy qo'llanma / – Toshkent: Mahalla va Oila, 2022. - 128 b.